

4-Mavzu: Ulug' shoir va mutafakkir

Darsning maqsadi:

- "Oqilona javob" rivoyat mazmuni bilan tanishtirish;
- Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoyi haqida ma'lumotlar berish;
- qayta hikoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Tayanch so'zlar: Alisher Navoiy, Husayin Boyqaro, til , bosh

Didaktik materiallar: Alisher Navoyining rasmi.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

Faollashtiruvchi mashqni o'tkazish: Mantiqiy savolga javob bering.


U sizga tegishli, ammo boshqalar uni sizdan ko'proq foydalanishadi. U nima? (Ism)

II. O'tilganlarni takrorlash. (10 daqiqa)

She'r yoddan so'raladi. Mirzo Ulug'bek haqida qisqacha ma'lumotlar o'qitiladi.

III. Darsning asosiy qismi. (27 daqiqa)

Amaliy topshiriq. Partadoshingiz bilan rebusni yeching.



$$R=L$$



Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Sizda qanday so'z hosil bo'ldi?
2. Kim boshqacha o'ylaydi?
3. Bu so'z haqida nima deya olasiz?

Mavzuni tushuntirish.

Alisher Navoyi haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

*Ulug' shoir va mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy Hirotda tug'ildi.
Uning to'liq ismi Nizomiddin Mir Alisher. Alisher Navoiy kichiklik chog'idan*

kitobga mehr qo'ydi. U maktabda bo'lajak sulton Husayn Bayqaro bilan birga o'qidi. Alisher Navoiy she'rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi.

Yashiringan so'zni topsangiz, Alisher Navoiyning mashhur asari nomini bilib olasiz.

XAMSA

Matn ustida ishlash.

"Oqilona javob" rivoyati o'quvchilarga zanjir usilida o'qitiladi. Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Rivoyat kimlar haqida?
2. Navoiyning shogirdlari qanday voqeanning guvohi bo'ldi?
3. Ayting-chi, imo-ishoraning ma'nosi nima ekan?

Matndagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

jumboq – topishmoq

xayoli parishon – xayoli tarqoq, fikri-xayoli joyida emas.

Mashq daftari bilan ishlash.

Daftardagi topshiriqlar bajariladi. Alisher Navoiyga tavsif beriladi.

Qahramon nomi: Alisher Navoiy

Asarda qahramonning tutgan o'rni: bosh qahramon

Qahramonning fikrlari: Boshga baloni til keltiradi.

Qahramonning fe'l-atvori haqida xulosa:aqli, ziyrak

"O'gitlar sandig'i" mashqi o'tkaziladi.

Alisher Navoiy hikmatlari o'qitiladi va mazmuni izohlanadi.

1. Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

2. Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganch ila.

3. Oz-oz o'rganib dono bo'lur, Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

4. Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (*3 daqiqa*)

- Alisher Navoyi haqida qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?
- Darsda sizga nima qiziq bo'ldi?

V. Uyga vazifa. (*2 daqiqa*)

Rivoyatni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Hikmatlardan yod oling.